
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ravshanov Lochinbek Urinovich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Markaziy harbiy okrug huzuridagi
“Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqola harbiy xizmatchilar ijobiy imijining psixologik jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u harbiy xizmatchilarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchi imijining axloqiy, ma’naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, imijning komandir faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoiylik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ИМИДЖА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация: Данная статья посвящена психологическим аспектам позитивного имиджа военнослужащего, что включает в себя изучение профессиональной, научной и психологической подготовки военнослужащих. В статье также анализируются моральные, духовные, эмоциональные и социально-психологические компоненты образа военнослужащего на концептуальной основе. Также в содержание исследования не исключена роль образа в деятельности командира, понятия военной роли, воинской звания, психологического имиджа и личности.

Ключевые слова: военнослужащий, воинская часть, военная дисциплина, образ, имиджология, социально-психологический образ, военная роль, воинское звание, военный специалист, военный психолог, военная деятельность, профессиональная преданность.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A POSITIVE IMAGE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF MILITARY PERSONNEL

Abstract: This article focuses on the psychological aspects of a positive image for military personnel, encompassing an examination of their professional,

scientific, and psychological training. It further analyzes the moral, spiritual, emotional, and socio-psychological components that constitute the image of a service member from a conceptual standpoint. Additionally, the study explores the role of this image in a commander's activities, as well as the concepts of military roles, military rank, psychological image, and personality.

Keywords: serviceman, military unit, military discipline, image, image studies, socio-psychological image, military role, military rank, military specialist, military psychologist, military activity, professional dedication.

KIRISH

Dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar davlatlar oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bu vazifalarni har tomonlama chuqur tahlil qilgan holda, davlatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi[1].

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev “Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, ta’lim-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga, bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz”[2,2] – deb, ta’kidlab o‘tgan. Mazkur vazifa doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo‘ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika va mavzuga oid qator tadqiqot ishlaridagi mavjud manbalarni atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta’rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga e’tibor qaratish zarur.

Barchamizga ayonki, davlatimiz xavfsizligiga qaratilgan har qanday ko‘rinishdagi qurolli tahdid va xavf xatarlarni bartaraf etishda birinchi navbatda milliy armiyamiz harakatga keladi va tinchligimizga qalqon bo‘ladi. Shu munosabatda davlat mudofaa qobiliyatini oshirish, jumladan harbiy

xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga oid zamonaviy va ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlar muhim hisoblanadi.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o‘z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora, mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta’sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko‘rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag‘ yig‘ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo‘llanilgan.

Bizning fikrimizcha, G.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi, ya’ni “Imij – bu idrok etish hodisasining maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning hayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi”[3,42].

D.Yagerning ta’rifi ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari shaxsiy tashqi ma’lumotlarini ham o‘z ichiga oladi. U imij – tashqi qiyofaning o‘ziga xos majmui, nutq, xulq-atvordan hosil qilinadi, deb yozadi. Imij – “taassurotlarni boshqarish” san’atidir[4,37]. Demak, imij nafaqat ko‘riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir ko‘rinishi sifatida ham tushuniladi. Ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan jangovar harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog‘lar, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xizmatchilarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Akademik V.Afanasevning tak’kidlashicha “Yaxshi muxandislarni, yaxshi o‘qituvchilarni, yaxshi tibbiyot xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlashimiz mumkin lekin, davlat rahbarlarini, bir so‘z bilan aytganda har qanday soha rahbarlarini alohida tayyorlashni iloji yo‘q. Biroq, ularning olgan ta’lim va tarbiya malakalari, soha bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi imijning ijtimoiy-psixologik determenantalari hisoblanadi[5,77]. Mazkur ta’rifdan shuni anglash mumkinki, professional harbiy xizmatchilar oldindan tayyorlanmaydi balki, shaxs psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z sohasi bo‘yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida harbiy xizmat sohasida faoliyat yuritish natijasida orttirilgan ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanar ekan.

Harbiy xizmatchilarning harbiy harakatlarida ham qator ijtimoiy-psixologik sabablar mavjud ya’ni ehtiyojlar, his-tuyg‘ular, istak, xoxish, intilishlar, qiziqishlar,

ideallar, e’tiqodlar va hokazo. Yuqorida ta’kidlangandek, har qanday harbiy xizmatchi faoliyati o‘z maqsadiga ega hisoblanadi[6,132]. Demak, jangovar faoliyatdagi yutuqlar harbiy xizmatchilar imijining ijbiy yoki salbiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan shakllanganligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Tadqiqotchi L.Berestova o‘zining shaxs professionalligining xarakteristikasini aniqlashga oid dissertatsiya ishida, shaxsga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o‘ziga xos ta’rifni keltirib o‘tgan. Uning fikricha, emotsional intellekt yuqori rivojlangan shaxs uchun, o‘z his-tuyg‘ularidan va boshqalarning his-tuyg‘ularidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o‘z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona shaxslar va qo‘l ostidagi yangi xizmatchilarga nisbatan hamdard bo‘la olishga, ularning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko‘ra olishga, ularni tarbiyalash hamda kasbiy salohiyatlarini rivojlantirishga g‘amxo‘r bo‘la olish kabi xususiyatlarini ta’minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi[7,24]. Demak, harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish uchun kasbiy professionalizmga oid emotsional intellektning shakllanganligi zarur ekan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda imijning ijtimoiy-psixologik sifatlari ahamiyatli hisoblanib, ularni kasbiy boshqaruvchanlik tushunchasi bilan tushuntirishi shart hisoblanadi. Tadqiqotchi Ye.Trifonovning ta’kidlashicha, harbiy boshqaruv masalalarini o‘rganilishiga metodologik sabablar sifatida quyidagilar ajratiladi[8,55]:

zamonaviy jamiyatdagi jadal o‘zgarishlar, undagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning yuqori sur’ati kasbiy ma’suliyatga oid qator talablarni keltirib chiqaradi, bu esa, harbiy-kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining ahamiyatini yanada oshiradi;

harbiy xizmat talablari va jamiyatning yuqori malakali harbiy xizmatchilarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi hamda harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish vazifalari;

mustahkam faoliyat turi, ya’ni harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalarini bajarishga tayyorligi, harbiy xizmatning turli majburiyatlarini muvaffaqiyatli hal qila olish imkoniyati masalasi;

ekstremal sharoitlarda topshiriqlarni kutmaydigan va lavozim majburiyatlari zimmasiga yuklatilgan kundan boshlab, muvaffaqiyatli bajaradigan, ijodiy va oqilona tashabbus ko‘rsatadigan professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash masalasi va boshqalar. Demak, zamonaviy harbiy psixologiya va ijtimoiy

psixologiya, boshqaruv psixologiyasi fanlarida «Kasbiy professionalizm» tushunchasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki maxsus sharoitlarga bog'liq bo'lgan shaxs faoliyatining turi hisoblanadi. Davlat mustaqilligining ishonchli himoyasi doimo har bir harbiy rahbar-komandirning eng oliy sharafli burchidir. Armiya – har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o'z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Harbiy xizmatchilar imijini psixologik jihatdan o'rganishda, qolaversa ular tomonidan harbiy xizmatni samarali tashkillashtirishda harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlari muhim hisoblanadi. Shu bois, harbiy xizmatchilar imijini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda, ularning Kattalar shaxsini o'rganish, lokus nazorat va rahbar shaxsiy sifatlarini aniqlash so'rovnomalarining o'zaro aloqador ko'rsatkichlari yuzasidan olingan tadqiqot natijalari K.Pirsonning r-korrelyatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha, asosiy bog'liqliklarni tashkil etgan psixologik birliklar xushmuomalalik shkalasi kasbiy faoliyatda yetakchilik (0,682**), shubhalanuvchan shkalasi ma'naviy yetuklik (0,627**), murosakorlik shkalasi internal lokus nazorat (0,668**), intellektuallik shkalasi internal lokus nazorat (0,670**), xayolparastlik shkalasi ijtimiy-axloqiy yetuklik (0,696**), zo'riqish shkalasi esa ijtimoiy intellekt (0,680), yangilikka moyillik shkalasi emotsional yetuklik (0,635**), ijtimoiy dadillik shkalasi internal lokus nazorat (0,638**) kabi shkalalar bilan o'zaro musbat aloqaga kirishganligini ko'rish mumkin. Natijalarda, deyarli barcha harbiy xizmatchilarning kasbiy mas'uliyat darajasi adekvat holatda bo'lib, shaxslilik xususiyatlarning statistik ahamiyati yuqori darajada ekanligi namoyon bo'ldi.

Tadqiqotdagi miqdoriy natijalar va ularning tahliliga ko'ra harbiy xizmatchilarning boshqaruv faoliyatidagi shaxsiy sifatlar uslubi turli harbiy toifalar bo'yicha o'rganilgan bo'lsa-da, miqdoriy ko'rsatkichlar harbiy xizmatchilar faoliyatining kognitiv jabhasi bevosita ularning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlarini tavsiflamoqda. Ijtimoiy-axloqiy yetuklik darajasi esa, harbiy xizmatchilarning konativ jabhalarini aks ettirgani singari, emotsional intellektiga tayanib emotsional-baholovchi jabhasini ifodalaydi. Barcha jabhalar esa, harbiy xizmatchilarning imijini ifodalovchi jamoadagi liderlik yoki boshqaruvdagi yetakchiligini belgilaydi. Miqdoriy natijalarga asoslanib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida ijtimoiy-axloqiy yetuklikning kognitiv va konativ faoliyatdagi o'ziga xosligi shundan iboratki, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatida bilim va qobiliyatlardan samarali foydalanishini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Harbiy xizmatchilarning emotsional yetukligi esa harbiy xizmat faoliyatining emotsional-baholovchisiga xos xususiyatlarni tavsiflamoqda, ya'ni harbiy xizmatchilarning kechinmlarini anglay oladigan va xatti-harakatlariga nisbatan sezgirlik hamda xulq-atvorini baholay olishini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki maxsus sharoitlarga bog'liq bo'lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharafli burchidir. Armiya esa, har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o'z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Shunday ekan, harbiy xizmatchilarda kasbiy rivojlantirishda ijobiy imij xususiyatlarini takomillashtirish talab etiladi. Natijada, harbiy xizmatchilarda muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o'zaro ta'sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o'zini tutish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o'rnata olishga xizmat qiladi. Demak, mazkur tadqiqotni ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganishga asos va zarurat mavjud, qolaversa, harbiy xizmatchilarda yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga ilmiy yechim bo'lishi ehtimoldan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // Vatanparvar.2020.3-son.2-b.

3. Андреева Г.М., Социальная психология. Учебник для высших учебных заведении - М.Аспект Пресс, 2001. С.42.

4. Ягер Д., Психология народов и масс. СПб.,1995. С.37.

5. Афанасьев В.Г., Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. изд. (II), ЭСКИМОС, 2009. – С. 77.

6. Прохвошев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С. 132.

7. Берестова Л.И., Социально-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя: автореф. дисс. канд. психол. наук: М., 1994. – С. 24.

8. Трифонов Е.В., Психофизиология военно-профессиональной деятельности: словарь. С.-Пб., 2006. – С. 55.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna